

O'ZBEKISTONDA TURIZM TARMOQLARI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Saidova Dilfuza Abdufattohovna

Farg'onan davlat universiteti

ORCID: 0009-0006-4170-5535

dilfuza_989@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada, turizm tarmoqlari infratuzilmasini rivojlantirish jarayonining amalga oshirish yo'nalishlari, turizm tarmoqlari infratuzilmasini innovatsion boshqarish mexanizmlari tamoyillari hamda turizm tarmoqlari infratuzilmasini rivojlantirish muammolari va uni bartaraf qilish yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik munosabatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: investitsion strategiya, innovatsion boshqarish, turizm tarmoqlarini boshqarish, rivojlantirish muammolari, infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash tizimi.

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ИНФРАСТРУКТУРЫ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА

Сайдова Дильфузা Абдуфаттоховна

Ферганский государственный университет

Аннотация. В данной статье рассмотрены направления реализации процесса развития инфраструктуры туристических сетей, принципы инновационных механизмов управления инфраструктурой туристических сетей, а также взаимосвязь проблем развития инфраструктуры туристических сетей и анализируются направления их устранения.

Ключевые слова: инвестиционная стратегия, инновационный менеджмент, управление туристическими сетями, проблемы развития, система инфраструктурной поддержки.

PROBLEMS OF INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT OF TOURISM INDUSTRIES IN UZBEKISTAN

Saidova Dilfuza Abdufattohovna

Fergana State University

Abstract. In this article, the directions of implementation of the process of development of the infrastructure of tourism networks, the principles of innovative management mechanisms of the infrastructure of tourism networks, and the interrelationships between the problems of the development of the infrastructure of tourism networks and the directions of their elimination are analyzed.

Keywords: investment strategy, innovative management, management of tourism networks, development problems, infrastructural support system.

Kirish.

Investitsion strategiyamizning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda ilg'or texnologiya bilan jihozlangan va xom ashyo resurslarimizni chuqur qayta ishlash imkonini beradigan yangi yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni yaratishga, mamlakatning turistik salohiyatini yuksaltirish va yangi ish joylarini barpo etishga qaratilgan investitsiya loyihalari afzal ko'rildi.

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesini jadal rivojlanadirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №954-son qaroriga muvofiq, respublika hududlarining turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini yanada oshirish, hududlarda zamonaviy turizm infratuzilmasining jadal rivojlanishini ta'minlash, mehmonxona xizmatlarini kengaytirish va sifatini yaxshilash, mehmonxona sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish, shuningdek, joylashtirish obyektlarining mavjud kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida 2019-yil avgustida oilaviy mehmon uylarni tashkil etishning soddalashtirilgan tartibi qabul qilindi". Shunga ko'ra, sertifikatlash bekor qilinib, mehmon uylarini yaratishning minimal talablari belgilandi. Shuningdek, Turizmni rivojlanadirish jamg'armasi mablag'lari asosida kredit foizlari ulushini 50,0%ni qoplanganda, kredit berishning imtiyozli mexanizmi amal qiladi.

Turizm mamlakatlar iqtisodiyotida multiplikativ samarani yuzaga keltiruvchi, jadal sur'atlarda o'sib boruvchi, yuqori daromadli va barqaror soha hisoblanadi. Ushbu soha iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy aloqalarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354сонли "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari qoshida faoliyat ko'rsatayotgan, shuningdek barcha axborot-resurs markazlari tugatilib, aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini rivojlanadirish maqsadida tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari qaytadan tashkil etilgan. Shu nuqtai nazardan, asosiy turistik resurslari sonining oshishi IT (axborot texnologiyalari) asosida modernizatsiyalashni taqozo qilmoqda.

Hozirgi vaqtida turizm jahon iqtisodiyotida tez sur'atlarda o'sayotgan va xizmatlar eksporti sohasi sifatida o'rin egallamoqda. Xalqaro turizmni Manila deklarasiyasida "Turizm faoliyat sifatida mamlakatlarning ijtimoiy, madaniy, ta'lim va iqtisodiy sohalariga va ularning xalqaro aloqalariga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri ko'rsatgan holda xalqlar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi" deb ta'kid etilgan. Bu holatni turizmning milliy davlatlarning ijtimoiy hayotida alohida o'ringa egaligi va chuqur kirib borayotganligi hamda istiqbolli soha sifatida yuqori o'ringa ega bo'layotganligini turizm va rekreatsiyaga xos uning turli xil funksiyalarini tadqiq qilish asosida tushunish mumkin. Turizm sohasi rivojlanishining iqtisodiy funksiyasi turistlarning turistik xizmatlarga bo'lgan talab va ehtiyojlari orqali shakllanadi.

Shu munosabat bilan turizm tarmoqlari infratuzilmasini rivojlanadirish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mamlakatdagi korxonalarining ham ichki, ham tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi uning faoliyat samaradorligiga bog'liqdir.

Adabiyotlar sharhi.

Innovatsiyalar turizm industriyasida hal qiluvchi omil bo'lib, mahsulot rivojlanishi, xizmat ko'rsatish sifati va umumiylarraqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadi.

Turizmdagi innovatsiyalar xilma-xil, jumladan mahsulot, jarayon, boshqaruv, marketing va institutsional innovatsiyalar. Ushbu toifalar sektor rivojlanishi va raqobatbardoshligi uchun juda muhim (Hjalager, 2010).

Turizm innovatsiyasida AKT va raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Tourism@ kabi yillik tadbirlar texnologik yutuqlarni va ularning sanoatga ta'sirini ta'kidlab, AKT ilovalari tomonidan tez evolyutsiyani namoyish etadi (Aldebert va boshq., 2011).

Raqamli texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, IoT va blokcheyn turizm xizmatlari samaradorligini va shaxsiy lashtirishni oshirib, innovatsion faoliyatning ortishiga hissa qo'shmaqda (Chuvatkin va Levchenko, 2023).

Barqarorlik va mas'uliyatli amaliyotlarga yo'naltirilgan innovatsiyalar tobora ommalashib bormoqda. Ekologik turizm, jamiyatga asoslangan turizm va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish iste'molchilarining ekologik toza variantlarga bo'lgan talabidan kelib chiqqan holda standart takliflarga aylanmoqda (Dolynska va boshq., 2023).

Barqaror sayyoqlik amaliyoti tabiiy va madaniy resurslarni saqlash uchun muhim ahamiyatga ega, ekologik toza turar joy va transport muqobillarida sezilarli yutuqlarga erishildi (Andreyevich va Boykov, 2019).

Turizm industriyasining iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish va investitsiyalarni jalg qilish uchun yangi turistik mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Innovatsiyalar yangi sayohat tajribalaridan tortib xizmat ko'rsatishning ilg'or usullarigacha bo'lishi mumkin (Baxramovich, 2018).

COVID-19 pandemiyasi turizm sohasida innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojni tezlashtirib, korxonalarni noan'anaviy yo'nalishlar va innovatsion xizmatlar ko'rsatish modellarini o'rganishga undadi (Donskova va boshq., 2021).

Turizm industriyasidagi innovatsion faoliyat raqobatbardoshlik va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradigan keng ko'lamli texnologik, barqaror va tadbirkorlik tashabbuslarini o'z ichiga oladi. Ushbu innovatsiyalarni qo'llash sektorning o'zgaruvchan bozor sharoitlariga va iste'molchilarining xohish-istiklariga moslashishi uchun zarurdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy maqolani yozish jarayonida O'zbekistonda turizm tarmoqlari infratuzilmasini rivojlantirish muammolarini aniqlashtirishda tizimli tahlil, analiz va sintez, qiyosiy va monografik tahlil usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror innovatsion taraqqiyotini ta'minlash nafaqat tegishli miqdordagi tadqiqot va ishlanmalarning mavjud bo'lishini, balki ularning amalda qo'llanilishini ham taqozo etadi. Iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish va ilmiy sektorlari o'rtaida aloqaning sustligi, xizmat ko'rsatish korxonalarining fundamental va amaliy fan natijalarini o'zlashtirish darajasining pastligi, fan yutuqlaridan foydalanishda rag'batlantirish va imkoniyatlarning yetishmasligi, innovatsion g'oyalarning bozor ehtiyojlariga muvofiq emasligi hududlar turizm tarmoqlari rivojlanish samaradorligining pastligiga sabab bo'lmoqda.

Turizm tarmoqlari sub'ektlarining innovatsion faolligini oshirish uchun innovatsion siklning barcha tarkibiy qismlari va bo'g'inlarini shakllantirish zarur. Buning yo'nalishlaridan biri innovatsiya jarayonida bevosita ishtirok etuvchi sub'ektlarning o'zaro hamkorlik mexanizmlarini yaratishdir. Shu munosabat bilan turizm tarmoqlari infratuzilmasini rivojlantirish va uning boshqarish uchun shart-sharoitlar yaratish zarurati vujudga keladi. Turizm tarmoqlari infratuzilmasini boshqarishning xorij tajribasini tizimlashtirish uning ayrim elementlarini yaratishning bazaviy modellarini belgilab olish va ulardan hudud turizm sanoatida foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Ularning umumiyl xususiyati – xususiy sektor menejerlarini jalg qilish hisobiga byurokratik bosimni kamaytirishga intilish, moliyalashtirish va boshqaruvning bozor vositalaridan foydalanishdir. Infratuzilmani rivojlantirish nuqtai nazaridan eng istiqbolli yo'nalishlardan biri xususiy sektor va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari jalg qilinadigan modellardan foydalanishdir. Ushbu modellar investitsiya risklarining taqsimlanishi (ajratilishi) va davlat mablag'larining tejalishini ta'minlaydi.

Turizm tarmoqlari infratuzilmasini rivojlantirish jarayonining amalga oshirilishini ikki asosiy jihat belgilaydi. Jumladan, investitsiyalar faqat quyidagi shartlar mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshiriladi: manfaat (foyda); qulay shart-sharoitlar.


Turizm tarmoqlari infratuzilmasiga yo'naltiriladigan investitsiyalarni shakllantirish mexanizmlari sohasidagi xalqaro tajribaning tahlili quyidagi bazaviy modellarni ajratib olishga imkon beradi:

- davlat hududiy turizm tarmoqlari ob'ektlarining moddiy-texnik bazasini barpo etishni to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtiradi va uning faoliyati bilan bog'liq barcha joriy amaliyot xarajatlarini iste'molchilarning to'lovlari amaliy xarajatlarni qoplagunga qadar qoplaydi;
- davlat ijtimoiy-iqtisodiy samarani ta'minlash maqsadida hududiy turizm tarmoqlari ob'ektining yaratilishi va faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtiradi;
- davlat ishtirokchi firmalar tomonidan to'lanadigan ijara to'lovlarini olish uchun hududiy turizm tarmoqlari ob'ektini barpo etishda investor sifatida ishtirok etadi;
- davlat hududiy turizm tarmoqlari ob'ektini keyinchalik xususiy investorlarga o'tkazib yuborishni ko'zda tutgan holda kapital va dastlabki xarajatlarni qoplaydi (3-5 yil davomida).

Sanab o'tilgan so'ngi model AQShga xos bo'lib, unda turizm tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ham milliy, ham hududiy miqyosda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, ko'rinib turibdiki, tashqi mexanizm turizm tarmoqlari infratuzilmasini rivojlantirishda investitsiyalar ajratiladigan iqtisodiy va tashkiliy chegaralar belgilashdan iborat bo'lishi lozim. Bu holatning mohiyatiga qaraladigan bo'lsa, turizm tarmoqlari infratuzilmasini rivojlantirishning ushbu mexanizmini tashkiliy-iqtisodiy mexanizm deb atashga asos bo'la oladi. Uni avvaldan belgilangan yo'nalishdagi harakatni ta'minlovchi bo'g'inalar tizimi deb tasavvur qilsak, bunday bo'g'inalar vazifasini turizm tarmoqlarini samarali boshqarish tartibini belgilovchi me'yoriy hujjatlar o'taydi. Qonuniy-me'yoriy hujjatlar, standartlar, metodikalar, nizomlar, algoritmlar va hokazolar shular jumlasidandir.

Mavjud turizm tarmoqlari infratuzilmasini amal qilishi muammolari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, amaldgi xolat bugungi kundagi innovatsion turistik korxonalar ehtiyojlariga to'liq javob bermaydi. Bu esa turizm tarmoqlarida innovatsiya faoliyatini amalga oshirishga qulay shart-sharoitlar yaratib berishni ta'minlovchi infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishni talab etmoqda (1-rasm).



1-rasm. Turizm tarmoqlari infratuzilmasini rivojlantirish muammolari va uni bartaraf qilish yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik

Bugungi kunda turizm tarmoqlarini samarali boshqarishda ilm-fan sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muammosi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, uning hal qilinishi turizm sohasini bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishini, ilmiy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga amaliy tatbiq qilishni ko'zda tutadi.

Respublika innovatsiya tizimidagi dinamik jarayonlar ustida olib borilgan tahlillar uning ayrim sektorlaridagi uzilishlarni aniqlashga va turizm tarmoqlari infratuzilma ob'ektlarini shakllantirishga differensiyalashgan yondashuv zarurligini isbotlashga imkon berdi. Ularning faoliyatida aniqlangan o'ziga xos xususiyatlar ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmidan foydalanish kerakliginidan dalolat bermoqda.

Milliy iqtisodiyotning innovatsion turizm tarmoqlarini barqaror rivojlantirish uchun infratuzilma elementlarini barpo etish bo'yicha mavjud tashhabbuslar va ularni moliyalashtirishning mavjud ko'lami yetarli emas. Samarali turizm tarmoqlari infratuzilmasini rivojlantirish uning elementlari o'rtasidagi tizim hosil qiluvchi aloqalarni jonlantirish zarurati bilan belgilanadigan turli tashkiliy va iqtisodiy omillarga bog'liqdir.

Xulosa va takliflar.

Turizmni rivojlantirishda milliy va hududiy dasturlarni ishlab chiqish bo'yicha mavjud tajribaga asoslangan holda turizmni rivojlantirishni dasturlash jarayoni jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Bunga misol sifatida, Samarqanddagi turistik markazning (Boqiy shahar) buyyod etilishi xorijiy va ichki turistik oqimni keskin darajada oshishiga olib keldi. Shu bilan birga, sohani rivojlantirish bo'yicha muammolar ham mavjud bo'lib, ularga turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va samaradorligini baholashda turistik oqimning real holatiga to'g'ri baho berish hamda huquqiy tartibga solish tizimini takomillashtirish zarur. Turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat darajasida ba'zi me'yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud bo'lsa, hududlar darajasida huquqiy tartibga solish muammolari har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda turizmni samarali rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan choralarining muhim ijobiy natijalari quyidagilarda namoyon bo'ladi: turizm sohasining rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish, Markaziy Osiyo va jahon davlatlari bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, turizm infratuzilmasidagi muammolarni bartaraf etish, turizm sohasini rivojlantiishning asosiy tayanch nuqtalaridan biri tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash.

Turizm tarmoqlari infratuzilmasini innovatsion boshqarish mexanizmi quyidagi tamoyillarga asoslangan bo'lishi lozim:

- asosiy e'tiborni mavjud ilmiy-tadqiqot muassasalari, turistik korxonalar va kredit-moliya tashkilotlariga qaratish;
- innovatsion loyihalarni amalga oshirish bilan bog'liq hatti-harakatlarni muvofiqlashtirishni va barqaror o'zaro aloqalarni ta'minlovchi turizm tarmoqlari infratuzilma ob'ektlarining yaxlit majmuasini barpo etish;
- turizm tarmoqlari infratuzilma ob'ektlari taraqqiyotining uzoq muddatli istiqbolini ko'ra olish zarurati;
- jarayonni boshqarish tizimini tashqi va ichki muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashuvi;
- iqtisodiy va ijtimoiy samara shaklidagi pirovard natijaga yo'naltirilganlik.

Turizm tarmoqlari infratuzilmasini boshqarish mexanizmini quyidagi ketma-ket bosqichlardan kelib chiqqan holda amalga oshirish mumkin: turizm tarmoqlari infratuzilmasinni rivojlantirish shart-sharoitlarni yaratish – investitsion ta'minotni tashkil qilish – ekspertiza – turizm tarmoqlari infratuzilma ob'ektlarini barpo etish. Bosqichlarning har biri ularning amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan turli xil reglamentlarni taqozo etadi.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

- Aldebert, B., Dang, R., & Longhi, C. (2011). *Innovation in the tourism industry: The case of Tourism@. Tourism Management*, 32, 1204-1213. <https://doi.org/10.1016/J.TOURMAN.2010.08.010>.
- Andreyevich, D., & Boykov, D. (2019). INNOVATIONS IN TOURISM. *Knowledge International Journal*. <https://doi.org/10.35120/KIJ30061745A>.
- Bakhramovich, I. (2018). *Innovative Activity as a Means of Developing the Economic Potential of the Tourism Industry*. *Journal of Investment Management*, 7, 86. <https://doi.org/10.11648/j.jim.20180703.13>.
- Chuvatkin, P., & Levchenko, K. (2023). *The role of digital technologies in increasing the innovation activity of tourism organizations*. *Research Result Business and Service Technologies*. <https://doi.org/10.18413/2408-9346-2023-9-2-0-4>.
- Dolynska, O., Shorobura, I., & Binytska, O. (2023). INNOVATIONS IN TOURISM. THE SCIENTIFIC ISSUES OF TERNOPILOVOLODYMYR HNATIUK NATIONAL PEDAGOGICAL UNIVERSITY. SERIES: GEOGRAPHY. <https://doi.org/10.25128/2519-4577.23.2.7>.
- Donskova, L., Kryukova, E., Khetagurova, V., Sulyagina, J., & Fomicheva, T. (2021). *Innovative Activity of Russian Tourism Enterprises*. *Revista Gestão Inovação e Tecnologias*. <https://doi.org/10.47059/REVISTAGEINTEC.V11I4.2221>.
- Hjalager, A. (2010). *A review of innovation research in tourism*. *Tourism Management*, 31, 1-12. <https://doi.org/10.1016/J.TOURMAN.2009.08.012>.
- Homidov Kakhkorali Kurbonali ublished. (2023). *Objective need for the formation and sustainable development of tourist complexes in the regions*: <https://doi.org/10.5281/zenodo.8151902>. IQRO, 4(2), 42-45.
- Homidov, K. (2023). *Conceptual approaches to the formation of a model for the sustainable development of tourist complexes*. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 2(7), 33-38.
- Homidov, K. (2023). *Organizational and economic foundations of the organization of tourist complexes in the development of tourism in the regions*. *Journal of Agriculture & Horticulture*, 3(7), 44-50.
- Хомидов Қ. (2023). *O'zbekistonda turistik majmular faoliyatini boshqaruv samaradorligi oshirish yo'llari*. *Economics and Innovative Technologies*, 11(3), 154-160.
- Хомидов Қ. (2023). *Худудларда туристик мажмулар фаолиятини шакиллантириш ва тизимли бошқарыш асосида худудлар туристик салоҳиятидан самарали фойдаланиш масалалари*. "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami, 412-415.
- Хомидов Қ.Қ. (2023). *Организационно - экономический механизм развития туристических комплексов*. In *Новые технологии в учебном процессе и производстве* (pp. 370-372).
- Хомидов, Қ. Қ. (2024). *Совершенствование институциональной базы системы государственного регулирования туристских комплексов*. *World of Scientific news in science*, 2(2), 262-269.
- Хомидов, Қ.Қ. (2023). *Инновационные преимущества использования информационных технологий в туристической деятельности*. In *современные вопросы естествознания и экономики* (pp. 421-424).